



O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRUVCHI OMILLAR

Sherimbetova Zamira Orinbayevna

Qoraqalpogiston Respublikasi

Nukus shahri 1-son politexnikumi

Tillar kafedrası

Ingliz tili fani yetakchi o'qituvchisi.

Tilovmurotova Muborak Abdiqodirovna

Qoraqalpogiston Respublikasi

Nukus shahri 1-son politexnikumi

Tillar kafedrası

O'zbek tili fani yetakchi o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi omillar chuqur tahlil etilgan. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, doimiy o'z ustida ishlashi va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zaruriyati yoritilgan. Shuningdek, mahoratni shakllantirishda motivatsiya, metodik ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va refleksiya kabi omillar alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, zamonaviy ta'lim, metodika, kasbiy rivojlanish, innovatsiya, refleksiya, texnologiyalar

Zamonaviy jamiyatda o'qituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, yo'l ko'rsatuvchi va shaxsiy rivojlanishga ko'maklashuvchi sifatida qaralmoqda. Shu boisdan, o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Pedagogik mahorat bu – o'quvchilar bilan samarali ishlay olish, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyani tashkil eta olish qobiliyatidir.

Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qituvchining kasbiy mahoratini doimiy rivojlantirib borishi eng muhim vazifalardan biridir. Pedagog o'z ustida tinimsiz



ishlashi, yangiliklarga ochiq bo'lishi, ilmiy-innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga harakat qilishi zarur. O'qituvchining metodik salohiyati, ta'lim jarayonida foydalaniladigan vositalar va metodlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish o'qituvchidan zamonaviy axborot texnologiyalari, didaktik materiallar, ta'limning interaktiv va faol metodlaridan keng foydalanishni talab etadi. Bu esa nafaqat bilim berish, balki o'quvchi bilan hamkorlikda faoliyat olib borish imkoniyatini yaratadi. Shu jihatdan, o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishda uzluksiz o'rganish va rivojlanish muhim o'rin tutadi.

Bunda ta'lim muassasalaridagi metodik birlashmalar va fan kafedralarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Metodik birlashmalarda o'qituvchilar o'zaro tajriba almashadilar, kuzatilgan darslarni tahlil qiladilar, yosh o'qituvchilarga maslahatlar beradilar hamda ilg'or tajribalarni ommalashtirish orqali umumiy pedagogik saviyani oshiradilar. Bu jarayon o'qituvchilarni kasbiy jihatdan shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagogik ijodkorlikning asosi – bu o'qituvchining amaliy tajribasidir. Pedagogik tajriba turli xil muammoli vaziyatlarga boy bo'lib, ulardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, o'qituvchining o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvi, o'quvchilarni ta'lim-tarbiyada yangi, samarali usul va vositalar orqali jalb qilishi tushuniladi. Bu kabi tajribalar ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va yangi bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni chuqur o'rganish, ularni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash natijasida yangi pedagogik hodisalar va qonuniyatlar aniqlanadi. Bu esa o'quv jarayonini zamonaviy talablarga mos holda modellashtirish va boshqarishga imkon yaratadi.



Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarga mustaqil izlanish, ijodiy fikrlash, tadqiqot olib borish ko'nikmalarini singdirishni ham talab etmoqda. Shu boisdan o'qituvchi zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladigan tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. Ilmiy izlanishlar orqali u muammoli holatlarni aniqlaydi, ularni tahlil qiladi, tegishli xulosalar chiqaradi va bu xulosalarni o'z amaliy faoliyatida qo'llaydi. Buning natijasida pedagog o'z kasbida chuqur tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv, natijaga yo'naltirilgan metodik ishlarni olib borish kabi muhim fazilatlarni egallaydi.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish uzluksiz ta'lim, ilg'or tajribalarni o'rganish, ilmiy izlanishlar olib borish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchining har tomonlama kamolot topishiga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Pedagogik mahoratni shakllantirishda kasbiy kompetensiyalar – didaktik, metodik, psixologik va kommunikativ ko'nikmalarining rivojlangan bo'lishi zarur. O'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, zamonaviy dars berish metodikalarini yaxshi egallashi muhim.

Pedagog doimiy ravishda seminarlar, kurslar, treninglar orqali o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishi zarur. Masalan, STEAM, CLIL, 5E model, differensial ta'lim kabi metodlar bilan tanish bo'lish o'qituvchining metodik arsenalini boyitadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish o'qituvchining o'quvchini jalb qilish, ta'limni interaktiv va qiziqarli qilishdagi asosiy vositalaridan biridir. Multimedia vositalari, elektron platformalar (Google Classroom, Zoom, Quizizz, Canva)dan foydalanish pedagogik jarayonni yengillashtiradi.



Refleksiya o'qituvchining o'z darslarini, o'quvchilarning yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilishi orqali o'z faoliyatini takomillashtirishiga xizmat qiladi. Bu esa pedagogik mahoratni oshirishning asosiy bosqichlaridan biridir.

O'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan mehr-muhabbati, o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoji uni yuksak natijalarga olib boradi. Ichki motivatsiyaga ega o'qituvchi o'z mahoratini muntazam rivojlantirib boradi.

Umumiy pedagogik tayyorgarlik – o'qituvchi tarbiyaviy va didaktik metodlarni yaxshi bilishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo'lishi, pedagogik jarayonni ilmiy asosda loyihalash va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Pedagog kasbining o'ziga xos jihatlari – bolalarni chin dildan sevishtirish, ular bilan ishlashga mehr bilan yondashish, pedagogik faoliyatga sadoqat, tashabbuskorlik va doimiy o'z-o'zini rivojlantirishga intilish bu sohaning ajralmas xususiyatlaridandir. Shu bilan birga, pedagogik tafakkur, tasavvur, nutq madaniyati, nozik did, estetik qarashlar, tashkilotchilik qobiliyati, qat'iyat va mehnatsevarlik singari sifatlar ham o'qituvchining kasbiy portretini to'ldiradi.

Bilim sohasida esa – keng dunyoqarash, yuqori ilmiy salohiyat, yangilikka ochiqlik, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj, intellektual faollik va tahliliy fikrlash salohiyati o'qituvchidan talab etiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahoratni oshirish – bu uzluksiz jarayon bo'lib, u o'z ichiga bilimlarni yangilab borish, metodikalarni boyitish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va refleksiv yondashuvni qamrab oladi. Bugungi o'zgaruvchan dunyoda o'qituvchi faqat bilimdon emas, balki doimiy o'sishga intiluvchi mutaxassis bo'lishi lozim.

¹ Xamidova S. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". – Samarqand, 2021. – 180 b.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova M. “Pedagogik mahorat va ijodkorlik”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.
2. Abduqodirov A. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent: Fan, 2020. – 232 b.
3. Xamidova S. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – Samarqand, 2021. – 180 b.